

O'ZBEK TILI LEKSIKASIDA O'Z QATLAM VA O'ZLASHGAN QATLAM SO'ZLARI

Sh.D.Karimov

Boshlang'ich ta'lim kafedra o'qituvchisi f.f.f.d.(PhD)

Xaliyoroova Shoxzoda Ulmasbekovna

Navoiy davlat universiteti talabasi

xaliyorovashoxzoda@gmail.com

Laylo Shamsiyeva Vaxob qizi

Navoiy davlat universiteti talabasi

shamsiyevalaylo82@gmail.com

Qahramonova Rayhona Nasimjonovna

Navoiy davlat universiteti talabasi

rayxonaqahramonova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilining lug'at boyligini tashkil etuvchi o'z qatlam va o'zlashgan qatlam so'zlarining kelib chiqishi, paydo bo'lishi, rivojlanish tarixi, jamiyat hayotida tutgan o'rni, qo'llanish xususiyatlari hamda leksik tizimdagi o'rni tahlil etiladi. Shuningdek so'zlarning sematik o'zgarishlari hamda neologizmlar negizida tildagi boyish jarayoni ilmiy manbalar asosida o'rganiladi.

Kalit so'zlar: semantik belgi, morfologik belgi, neologizm, tarixiy leksema, arxaik leksima, affiksatsiya usuli, fonetik belgi.

Ma'lumki, inson dunyoga kelganidan to umrining oxirigacha, insonlar bilan muloqot qiladi. Ular muloqot qilganda bitta oila vakillari bilan yoki bir millat kishilari bilan muloqot qilmaydi, balki turli oila vakillari bilan yoki turli millat-elatlar bilan muloqot qiladi. Bu muloqot natijasida yangi so'zlar va avval muloqotda bo'lgan so'zlarning ma'nosi kengayishi, torayishi mumkin yoki muloqotdan chiqishi ya'ni tarixiy leksemaga aylanishi mumkin.

Ma'lumki, o'zbek tili eng qadimgi turkiy urug' va qabilalardan paydo bo'lgan, demak, o'zbek tili ham shu urug' va qabilalar asosida rivojlangan. Markaziy Osiyodagi turli tarixiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, xususan, arablar, mo'g'ullar va ruslar istilosi bilan birgalikda tillarning o'zaro aloqasi va hamkorligi ko'p holda bu tillar orasida so'z almashishga, bir tildan ikkinchi tilga so'z o'tishiga sabab bo'ladi. Bir tildan ikkinchi tilga so'z o'tishi uchun sharoit kerak. Bu sharoit ikki tilning shunchaki aloqasi, yonmayon yashashi, hududiy yaqinlashishi emas, balki o'zro ta'siri, hamkorligi va bu asosda yuzaga keluvchi ikki tillilik hodisasidir. O'zbek tili tarixda turkiy tillar oilasiga mansub qardosh tillar bilan, chunonchi, qozoq, qirg'iz, uyg'ur, qoraqalpoq, uyg'ur, turkman, ozarbayjon tillari bilan aloqada bo'lgan. Bunday aloqa hozir ham davom etmoqda.

Mana shunday aloqa tufayli O'zbekistonning ko'pgina viloyatlarida o'zbek va qirg'iz tillarida, o'zbek va qozoq tilida, turkman va o'zbek tilida, tatar va o'zbek tilida, qoraqalpoq va o'zbek tillarida parallel gaplasha oluvchi ikki tilli aholi mavjud. Bunday genetik jihatdan aloqador bo'lgan ikki qardosh tilda gaplasha olish O'zbekistonda yashovchi aholi orasida qadimdan mavjud shu sababdan o'zbek tilining lug'at boyligida ikkita yirik qatlam - o'z va o'zlashgan qatlamlarga bo'linadi.

1.O'z qatlam - o'z ichki imkoniyatlari asosida boyish.

2.O'zlashgan qatlam - boshqa tillardan so'z olish asosida boyish.

O'z qatlam- o'zbek tili leksikasining umumturkiy so'zlar va sof o'zbek so'zlaridan iborat qismlari.

1. Umumturkiy so'zlar o'zbek tili leksikasining eng qadimgi lug'aviy birliklaridir.

Ularning aksariyati hozirgi qozoq, qirg'iz, turkman, ozarbayjon tillaridan ham saqlangan.

Misol: bosh (o'zb)- bas (qoz. qoraq)- bash (qirg'. turkm) O'zbek tili leksikasidagi umumturkiy so'zlarning o'ziga xos fonetik, morfologik, sematik belgilari haqida ma'lumot olamiz.

Fonetik belgi:

a) So'zlarning ko'pchiligi bir yoki ikki bo'g'inlidir.

b) Urg'u ko'pincha so'z oxiriga tushadi.

Sematik belgilari: Umumturkiy so'zlarning aksariyati ko'p ma'nolidir.

Misol: bosh- 1) odamning boshi; 2) ko'chaning boshi; 3) ishning boshi

ko'z-1)odamning ko'zi; 2) uzukning ko'zi; 3) taxtaning ko'zi; 4) derazaning ko'zi

Morfologik belgilari:

a) turlanadi va tuslanadi;

b) umumturkiy so'zlar hozirgi o'zbek tilining barcha so'z turkumlarida uchraydi;

c) o'zak va affiks morfemalar erkin va standart bo'ladi.

2. Sof o'zbek so'zlari- o'zbek tilining o'zida yasalgan so'zlar.

Sof o'zbek so'zlarining yasallish usulari:

a) Sematik usul- yangi leksemaning yuzakelishi.

Misol:ko'k (rang) - ko'k (osmom) yupqa (sifat) - yupqa (ot. ovqatning bir turi)

b) Affiksatsiya usuli: Bunda o'zak va affikslar turli til materiallari bo'lishi

mumkin, ammo ularning qo'shilishi o'zbek tili tarkibida yuz beradi, o'zbek tilining so'z yasash qoliplariga asoslanadi, shu sababli bunday yasama so'zlar o'zbek tilining o'z qatlami birligi sanaladi.

Masalan: bosh (umumturkiy)+ «-la» (o'zb.) - boshla (o'zb.), temir (umumturkiy) + «-chilik» (okzb.) - temirchilik (o'zb.), jang (f-t.) + «-chi» (o'zb.) —jangchi (o'zb.), madaniyat (ar.) + «-li» (o'zb.) — madaniyatli (o'zb.)¹.

O'zlashgan qatlamlar - o'zbek tili leksikasi boshqa tilardan o'zlashtirilgan leksemalardan ya'ni arabcha, forsha-tojikcha, xitoycha, mo'g'ulcha, grekcha, ruscha so'zlar o'zlashgan qatlamlarni tashkil etadi.

Arabcha so'zlar: kitob, maktab, xalq, maorif, shoir, ma'no, ilhom, san'at, tanqid, madaniyat, kashf, a'lo, odob, xat, savod, amal, oila va boshqalar.

Arabcha so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega:

a) (v) f, h, ' harflari ishtirok etgan so'zlar, asosan, arabcha;

Misol: ma'no, ta'limot, na'ra, sinf

b) Arabcha so'zlar siniq ko'pligiga ega, ya'ni ko'plik so'z tarkibini o'zgartirish bilan hosil qilinadi:

Misol: hol-ahvol, xabar-axbor, xulq-axloq, she'r-ash'or.

Arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlar orasida tarixan yasama bo'lgan adabiy, badiiy, g'olibiyat, voqeiy, voqean, oilaviy kabi leksemalar ham bor.

Forscha-tojikcha so'zlar: osmon, oftob, bahor, baho, barg, daraxt, gul, xona, mirob, dasta, bemor, g'isht, dasht, xonadon, shogird, xaridor, serob, shirin, mard, mehribon va boshqalar.

Tojik-fors tillaridan o'zbek tiliga bir qator prefiks va suffikslar ham o'zlashgan: prefikslar — «be-», «ba-», «no-», «ham-», «bar-», «kam-», «xush-»;

suffikslar «-kor», «-zor», «-xo'r», «-parvar», «-kash», «-bop», «-boz»,

«-do'z», «-namo», «-paz», «-fumsh» va b.lar². Ular dastlab tojik-fors so'zlari tarkibida qo'llangan, keyinchalik o'zbek tilining so'z yasovchi affikslari qatoridan o'rin olib, yangi so'zlarning yasashida ishtirok etgan, shu yo'l bilan o'zbek tili leksikasini yana-da boyitgan.

Tojik tilidan so'z o'zlashtirilishi o'zbek tilining lug'at tizimida yangi sinonimik qatorlarni ham yuzaga keltirgan: qirov (o'zb.) — shabnam (toj.), yaproq (o'zb.) — barg (toj.), oltin (umumturkiy) — tilla (toj.), buloq (o'zb.) - chashma (toj) kabi.

Bunday holni antonimlar tizimida ham ko'ramiz:

do'zax (f-t.) — jannat (ar.), yirik (o'zb.) — mayda (f-t.) kabi³.

Forscha-tojikcha so'zlar quyidagi xususiyatlarga ega.

a) tojikcha so'zlar o'zbek tili lug'ati tarkibida qadimdan mavjud bo'lib kelgan.

b) ch, l, g, z undoshlari bilan boshlanadigan so'zlar asosan tojikcha hisoblanadi:

Misol: lola, gul, chaman.

v) -xo'r, -noma, -do'z, -xon, -namo, -shunos, -boz, -bon, -dor, no-, ser- qo'shimchalari forsha-tojikchadir⁴.

Ruscha-baynalmilal - o'zbek tiliga rus tilidan va u orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan leksemalar: gazeta, jurnal, avtobus, trolleybus, teatr, roman, sujet, geometriya, fizika, matematika, traktor va boshqalar.

O'zlashtirilgan leksima ham eskirib, iste'moldan chiqib ketishi tabiiy bo'lgani kabi, unda yangi so'zlarning yaratilishi ham tabiiy bir holdir. Tilda yangidan paydo bo'lgan va yangilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar yangi qatlamni tashkil etadi. Bunday so'zlar neologizmlar deb yuritiladi.

Neologizmlar tildagi yangilanish, ijodkorlik va o'sishning yorqin ko'rinishidir. Ular orqali til jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashadi, zamonaviy ehtiyojlarga xizmat qiladi. Shuning uchun neologizmlarni o'rganish, ularni to'g'ri qabul qilish va faol foydalanish — tilshunoslikning va umuman madaniyatimizning muhim vazifalaridandir. Til yashar ekan, yangi so'zlar tug'iladi va ular orqali xalq tafakkuri yanada boyiydi.

Neologizmlar ikkiga bo'linadi:

1) yangi leksema tilimiz uchun aslida begona, lekin unga endigina kirib kelib o'rnashgan boshqa tilga xos leksik birlik .

Misol: admin, feyk, prank, repost, layk

2) faollashgan leksema yangi leksikaning turlaridan bo'lib, ular iste'moldan chiqib ketgan va bugungi kunda qayta qo'llanila boshlagan birliklardir.

Misol: hokim, viloyat, tuman, oqsoqol kabi⁵.

Yana shunday neologizmlar borki, kundalik hayotda qo'llanilishi uchun ehtiyoj paydo qilgan, lekin —O'zbek tilining izohli lug'atidan joy olmagan. Ulardan misol keltirib quyidagilarni ayta olamiz: koka-kola, minimarket, gipermarket, chizburger, hot-dog, netbuk, sensor, fleshxotira, planshet, selfi, blogger va hokazo.

Neologizmlar ham vaqt o'tishi bilan tarixiy leksema yoki arxaik leksimalar qatoriga kirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, har ikki qatlam ham o'zbek tili rivojida muhin o'rin tutadi. Tilning boyishi ham shu ikkala qatlamga ham ma'lum miqdorda bog'liq. Biroq, har ikkala qatlamni ham o'z o'rnida qo'llash kerak birini o'rnida boshqasini qo'llab bo'lmaydi. Neologizmlar orqali til jamiyatdagi rivojlanishga moslashadi, zamonaviy ehtiyojlarga xizmat qiladi. Shu sababli neologizmlarni o'rganish, ularni to'g'ri qabul qilish va faol foydalanish-tilshunoslikning va umuman madaniyatimizning muhim vazifalaridandir. Til yashar ekan yangi so'zlar tug'iladi bu esa til taraqqiyotining tabiiy va zaruriy jarayonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. "Talqin"—2005 188-193- bet.
2. R.Sayfullayeva. B.Mengliyev va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili.O'quv qo'llanma. T.: "Fan va texnologiya", 2009. 120-122-bet.
3. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi o'zbek adabiy tili.Darslik.—Toshkent."Universitet"--2006. 92-93-bet.
4. Z.Xolmonova.Tilshunoslikka kirish.Toshkent.2007. 97-99-bet.

5. Go'zal Qo'ziyoyeva . “Hozirgi kunda tilimizda faol qo'llanilayotgan o'zlashma neologizmlar”. Toshkent. 2022.
6. Zahroxon Nosirova. “O'zbek tilshunosligida o'zlashma so'zlarning ro'li va ahamiyati”. Andijon. 2022
7. SH.SHoabdurahmonov va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent.O'qituvchi. 1980.118-120- betlar.